

OTA-ONALARNING PEDAGOGIK MADANIYATINI OSHIRISHDA ALISHER NAVOIYNING MA'NAVIY MEROSIDAN FOYDALANISH

Usanov Sherzod Abdulaxatovich

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari“ kafedrasi katta o‘qituvchisi

ANNOTASIYA

Maqolada Alisher Navoiyning ma’naviy merosida ota-onalarga bola tarbiyasi borasidagi tarbiyachilik bilimlari, ma’lumotlar berilgan hamda bola tarbiyasida ota-onalarning mas’uliyatini oshirishga oid amaliy tavsiyalari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: Navoiy, oila, ota-onsa, ma’naviy meros, madaniyat, bola, tarbiya, ma’lumot, tarbiyani yaxshilash, takomillashtirish, amaliy tajriba, xulq-atvor, odob, kelajak.

АННОТАЦИЯ

В статье духовное наследие Алишера Навои дает педагогические знания и информацию родителям о воспитании детей, практические рекомендации по повышению ответственности родителей в воспитании детей.

Ключевые слова: Послушание, семья, родители, духовное наследие, культура, ребенок, воспитание, воспитание, совершенствование воспитания, совершенствование, практический опыт, поведение, манеры, будущее.

ABSTRACT

In the article, Alisher Navoi’s spiritual heritage provides educational knowledge and information to parents about child education, and practical recommendations on increasing the responsibility of parents in child education.

Key words: Obedience, family, parents, spiritual heritage, culture, child, education, education, improvement of education, improvement, practical experience, behavior, manners, future.

“Dili pok-u, o‘zi pok-u, so‘zi pok”

Alisher Navoiy.

Alisher Navoiy merosini pedagogik jihatdan o‘rganish respublikamizda I.Hasanxo‘jayev, A.Zunnunov, X.Hamrayeva, K.Abdullayev, A.Hasanova, G.Rahimova, A.Abdumannotovlar tomonidan amalga oshirilgan.

Akademik Vohid Abdullayev Alisher Navoiyning hayoti va Samarqanddagi adabiy faoliyati haqida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan bo‘lsa, akademik B.Valixo‘jayev o‘zining qator ilmiy-tadqiqot ishlarini Navoiyning Samarqanddagi faoliyatiga bag‘ishlagan. Professorlar M.Muhiddinov, Dilorom Salohiyalarning ham bu boradagi xizmatlari e’tiborga molik.

Pedagog olimlardan O.Musurmonova, M.Ochilov, R.Mavlonova, M.Quronov, M.Inomova, S.Nishonova, U.Mahkamov, N.Ortiqov, J.Hasanboyev, S.Hasaniy, S.Rahimov, O.Hasanboyeva va boshqa bir qator olimlar milliy, ma’naviy, tarixiy qadriyatlarimizning yoshlari ta’lim va tarbiyasini takomillashtirishdagi o‘rnini belgilab berishda salmoqli hissalarini qo‘shdilar.

Alisher Navoiy merosini pedagogik jihatdan o‘rganish respublikamizda I.Hasanxo‘jayev, A.Zunnunov, X.Hamrayeva, K.Abdullayev, A.Hasanova, G.Rahimovlar, hamda alohida e’tirof bilan ustozim A.Abdumannotov tomonidan amalga oshirilgan.

Alisher Navoiyning bizga qoldirgan o‘gitlari hayotimizning barcha yo‘nalishlarida ma’naviy meros bo‘lib xizmat qiladi.

Alisher Navoiy tarbiyaning ko‘p qirralari haqida qimmatli fikrni bildirgan. U bolani juda kichik yoshidan tarbiyalamoq darkor -deb hisoblaydi. Tarbiya insonning o‘zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam beradi, u odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa, kishilarning bir-biriga bo‘lgan ruhiy, ma’naviy ta’sirlari

natijasida tarkib topadi, deb ta'kidlaydi. Alisher Navoiy odamni voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligini uqtiradi.

Alisher Navoiyning ta'biricha, tarbiyaning maqsadi yosh avlodni xalqparvar, bilimli, eng yaxshi fazilatlarga ega kishi qilib voyaga yetkazishdir. U «Mahbub ul-qulub» asarida «Qobiliyatli odamni tarbiya qilmaslik zulmkorlik va noqobil odamga tarbiya hayfdir. Tarbiyangni ayab unisini nobud qilma, tarbiyangni bunisiga zoya ketkazma»[1], -deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, har bir ota-onasi o‘z farzandiga yoshligidan ta’lim-tarbiya berishi, maktabda o‘qitishi lozim.

Navoiy «Tarbiyaning yana biri unga (farzandga) ilmu adab o‘rgatish uchun muallim chaqirishdir»[2], -deb hisoblaydi.

Navoiy reja bilan, aql bilan, halol mehnat qilishni maslahat beradi va ota-onalarni bolani shu asosda tarbiyalashga da’vat etadi. Navoiy xalq manfaati uchun ishlaydigan kishilarni haqiqiy komil odam, deb biladi.

«Odami ersang demagil odami,
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami».

Alisher Navoiy «Maxbub-ul qulub» asarida «Odobli va go‘zal xulqli odamlar ko‘payaversa xalqlarning do‘stligi, ularning bir-biriga bo‘lgan mehr-muhabbati borgan sari rivoj topadi. Agar kishi odob va tovoze’ kabi xulqqa ega bo‘lsa, o‘zi ham xalqning izzat-hurmatiga sazovor bo‘ladi»[3] -deb juda o‘rinli ta’kidlagan. Haqiqatan ham har bir insonning o‘z xalqiga va boshqa xalqlar izzat-hurmatiga sazovor bo‘lishi milliy xulq-atvorni shakllantirish bilan bevosita bog‘liq

Navoiy laganbardorlikni, xushomadgo‘ylikni eng yomon sifatlardan deb biladi va bunday sifatlarni bolaga singdirmaslik lozimligini uqtiradi. Ota-onalarni o‘z bolalarini chin insonga xos bo‘lgan eng yaxshi fazilatlar egasi qilib tarbiyalashga da’vat etadi.

Alisher Navoiy «Himmati yo‘qning hurmati yo‘q», -deydi. Uning ta’kidlashicha, mard odam maqtanchoq bo‘lmashigi kerak. «Qaysi kishi, agar mardlik nishonasiga ega bo‘lsa, u o‘zining ming turli qilgan ishlaridan birini ham aytmaydi». Mard kishilar xalq hurmatiga sazovor bo‘ladilar.

Uning fikricha, insonning insoniyligi aql vaadolat bilan, halollik va poklik bilan faoliyatda bo‘lishidir. Navoiyning mazkur fikri bola tarbiyasida o‘ta dolzarb va ota-onalarga katta mas’uliyat yuklaydi.

Bolalarni ota-onani hurmat qilishga, xizmat qilishga chaqiradi.

«Boshni fido ayla ota boshiga
Jismni qil sadqa ona qoshiga,
Ikki jahoningni tilarsan fazo
Xosil et ushbu ikkisidan rizo.
Tunu-kuningni aylagil nur fosh,
Birisin oy ayla, birisin quyosh»[4].

Alisher Navoiy aytganidek, ota-onani hurmat qilish farzandlar uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq bo‘lsa ham, kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, uning boshi uchun butun jismingni sadqa qilsang arziydi. Ikki dunyoing obod bo‘lishini istasang, shu ikki odamning roziligini ol! Tunu kunga nur berib turgan birisini oy, birisini quyosh bil, ular chizgan chizig‘idan bir qadam ham bosma. Hamma xizmatni sen odob bilan bajar, «adab» so‘zidagi «dol» kabi qomatingni ham qil -deb bolalarni ota-onalarni hurmatlash, e’zozlash, qadrlashga da’vat qiladi. Afsuski ba’zi oilalarda tarbiya topgan yoshlar orasida ota-onasini hurmat qilmaydiganlari topiladi. Ota-onasi keksayganda g‘amxo‘rlik ko‘rsatmay ulardan xabar olmay o‘z holiga tashlab qo‘yishadi. Moddiy jihatdan qiynalishadi va xakozo.

Navoiy ayollar masalasida ham jasur fikrlarni o‘rtaga tashladi. U o‘z zamonasidagi ayollarning o‘ta ayanchli ahvoliga yurakdan achinadi, ularning xo‘rlanganliklaridan shikoyat qiladi, ayppardagi qobiliyatni, mahoratni, uquvni madh etadi:

Yuz tuman nopl erdin yaxshiroq,
Pok xotinlar oyog‘ining izi.

Alisher Navoiyning oilada xotinning tutgan o‘rni va roli haqidagi fikri oila tarbiyasining negizini, asosini tashkil etadi hamda bola tarbiyasida pedagogik, ijtimoiy, amaliy ahamiyat kasb etadi va g‘oyat qimmatlidir. «Yaxshi xotin deydi Navoiy-

oilaning davlati va baxt -Uyning orayishi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo‘lsa-ko‘ngil ozig‘i, xushmuomala bo‘lsa-jon ozig‘idir. Oqila bo‘lsa, ro‘zg‘orda tartib-intizom bo‘ladi. U beandisha, shallaqi bo‘lsa, ko‘ngil undan ozor chekadi, yomonlik axtaruvchi bo‘lsa, undan ruh azoblanadi.

Agar mayxo‘r bo‘lsa, uy obodligi yo‘qoladi, aqlsiz bo‘lsa, oila rasvo bo‘ladi». Navoiy oila tarbiyasida onaning shaxsiy namunasi muhimligiga asosiy e’tiborni qaratadi va uning xushmuamala, oqila bo‘lishga da’vat etadi.

Navoiy oilada o‘g‘il tarbiyasida otaning ona o‘mini bosaolmasligini va otasiz o‘g‘il haqiqiy tarbiyalanmasligiga asosiy e’tiborni qaratib, uni quyidagicha ifodalagan:

Ano o‘rnin ato tutmas o‘g‘ilga,
Ki mumkindir o‘g‘il bo‘lmoq atosiz.

Navoiyning tarbiya haqidagi fikrlari bola tarbiyasida o‘z qadr-qimmatini oshiraveradi va barhayot bo‘lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI(REFERENCES)

1. Alisher Navoiy. Xamsa. – T:, 1960. - 104-bet.
2. Alisher Navoiy. «Hayrat ul-abror», - T: G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va sa’nat nashriyoti», 1989. -55-bet.
3. Alisher Navoiy «Maxbub-ul qulub», T.: 1983. 48-bet.
4. Mallaev N.M. O‘zbek adabiyoti tarixi -T.: «O‘qituvchi». 1967. 483-bet.